O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JANUBIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN SAVDO-IQTISODIY HAMKORLIGI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Xursanabodov Jaxongir Baxit o’g’li
Tashqi iqtisodiy faoliyat kafedrasi talabasi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Ilmiy rahbar:
Narov Ulug‘bek Iriskulovich,
iqtisod fanlari doktori,
Tashqi iqtisodiy faoliyat kafedrasi professori
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
E-mail: jahongirhursanabodov@gmail.com
+998909212565

Annotatsiya. Mazkur maqolada Janubiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, ularning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni hamda tashqi savdo va investitsiya jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonning Hindiston, Pokiston va Afg‘oniston bilan savdo-iqtisodiy hamkorligi hamda uning rivojlanish istiqbollari baholangan. Transafg‘on transport yo‘lagining ahamiyati va O‘zbekiston eksport salohiyatini kengaytirish imkoniyatlari yoritilib, Janubiy Osiyo yo‘nalishi mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatining muhim strategik vektori sifatida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Janubiy Osiyo, O‘zbekiston, tashqi savdo, eksport, import,investitsiyalar, iqtisodiy hamkorlik, transafg‘on transport yo‘lagi, Hindiston,Pokiston, Afg‘oniston, logistika, mintaqaviy integratsiya.

ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН СО СТРАНАМИ ЮЖНОЙ АЗИИ И

ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО РАЗВИТИЯ

Хурсанабодов Жахонгир Бахит угли
студент кафедры внешнеэкономической деятельности
Ташкентский государственный университет востоковедения
Научный руководитель:
Наров Улугбек Ирискулович,
доктор экономических наук,
профессор кафедры внешнеэкономической деятельности
Ташкентский государственный университет востоковедения
E-mail: jahongirhursanabodov@gmail.com
+998909212565

Аннотация. В статье проанализированы особенности экономического развития стран Южной Азии, их роль в мировой экономике, а также процессы внешней торговли и инвестирования. Рассмотрены торгово-экономические связи Узбекистана с Индией, Пакистаном и Афганистаном и перспективы их дальнейшего развития. Особое внимание уделено значению Трансафганского транспортного коридора и возможностям расширения экспортного потенциала Узбекистана, что подтверждает стратегическую важность южноазиатского направления во внешнеэкономической политике страны.

Ключевые слова: Южная Азия, Узбекистан, внешняя торговля, экспорт, импорт, инвестиции, экономическое сотрудничество, Трансафганский транспортный коридор, Индия, Пакистан, Афганистан, логистика, региональная интеграция.

TRADE AND ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE COUNTRIES OF SOUTH ASIA: CURRENT STATE AND DEVELOPMENT PROSPECTS

Xursanabodov Jakhongir Bakhit ugli
Student of the Department of Foreign Economic Activity
Tashkent State University of Oriental Studies
Scientific Supervisor:
Narov Ulugbek Iriskulovich,
Doctor of Economic Sciences,
Professor of the Department of Foreign Economic Activity
Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail: jahongirhursanabodov@gmail.com
+998909212565

Abstract. This article analyzes the economic development of South Asian countries, their role in the global economy, and key trends in trade and investment. It examines Uzbekistan's trade and economic cooperation with India, Pakistan, and Afghanistan, as well as prospects for further collaboration. Special attention is given to the importance of the Trans-Afghan Transport Corridor and opportunities to expand Uzbekistan's export potential, highlighting South Asia as a strategic direction of Uzbekistan's foreign economic policy.

Keywords: South Asia, Uzbekistan, foreign trade, exports, imports, foreign direct investment, economic cooperation, Trans-Afghan Transport Corridor, India, Pakistan, Afghanistan, logistics, regional integration.

Kirish

Globallashuv va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida tashqi iqtisodiy hamkorlik davlatlar rivojlanishining muhim omiliga aylanmoqda. Janubiy Osiyo mintaqasi 2 milliarddan ortiq aholisi, yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari va yirik iste’mol bozori bilan jahon iqtisodiyotining muhim markazlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston uchun ushbu mintaqa bilan hamkorlik eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish va

transport-logistika imkoniyatlarini kengaytirish nuqtai nazaridan strategik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonning Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarining hozirgi holati, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi

Janubiy Osiyo mamlakatlarining yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari, yirik iste’mol bozori va transport-logistika salohiyati O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatida ushbu mintaqaning ahamiyatini oshirmoqda. Eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish va mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish zarurati mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi

O‘zbekiston Respublikasining Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorligining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, eksport salohiyatini oshirish hamda iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik, qiyosiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, O‘zbekistonning Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarining holati va rivojlanish tendensiyalarini baholash maqsadida rasmiy statistik ma’lumotlar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari tahlil qilindi. Tadqiqotning axborot bazasini World Bank Group, UNCTAD, IMF, Asian Development Bank, O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va boshqa xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlari tashkil etdi [1; 2; 3; 6; 8; 13].

Tahlil va natijalar

Janubiy Osiyo jahon iqtisodiyotining eng yirik va tez rivojlanayotgan mintaqalaridan biri bo‘lib, 2025-yilda uning aholisi 2,09 mlrd kishidan oshadi va dunyo aholisining qariyb 25 foizini tashkil etadi. Mintaqaning umumiy YaIM hajmi

4,5 trln AQSH dollaridan ortiq bo‘lib, uning 80 foizi Hindiston hissasiga to‘g‘ri keladi. Mintaqa iqtisodiyoti investitsiyalar oqimi, xizmatlar sektori, mehnat migratsiyasi va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish hisobiga rivojlanmoqda.

O‘zbekiston uchun Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik tashqi savdoni diversifikatsiya qilish va yangi bozorlarga chiqish nuqtai nazaridan strategik ahamiyatga ega. 2020–2025-yillarda o‘zaro savdo aylanmasi 1,38 mlrd dollardan 2,95 mlrd dollargacha oshib, 113 foizga o‘sdi. Janubiy Osiyoning O‘zbekiston tashqi savdosidagi ulushi esa 3,8 foizdan 4,2 foizgacha ko‘paydi. Mintaqadagi eng yirik hamkor Afg‘oniston bo‘lib, savdo hajmi 776,9 mln dollardan 1,54 mlrd dollargacha oshishi prognoz qilinmoqda. Hindiston bilan savdo hajmi 442,6 mln dollardan 991 mln dollargacha, Pokiston bilan esa 123,3 mln dollardan 300 mln dollargacha ko‘payishi kutilmoqda. Bangladesh bilan savdo 37,9 mln dollardan 120 mln dollargacha, Shri-Lanka bilan esa 1,8 mln dollardan 25 mln dollargacha o‘sishi prognoz qilinmoqda. 2025-yilda Janubiy Osiyo bilan savdoning qariyb 86 foizi Afg‘oniston va Hindiston hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu sababli Bangladesh, Shri-Lanka, Nepal va Maldiv orollari bilan iqtisodiy aloqalarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. “Mozori Sharif – Kobul – Peshovar” temiryo‘li loyihasi yuk tashish xarajatlarini 30–40 foizga kamaytirib, mintaqalararo savdo va logistika aloqalarini faollashtirishi mumkin.

Umuman olganda, Janubiy Osiyoning yirik bozori va iqtisodiy salohiyati O‘zbekiston eksporti uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Mavjud tendensiyalar saqlansa, 2030-yilga borib O‘zbekistonning mintaqaga eksport hajmi 5–6 mlrd AQSH dollariga yetishi mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Janubiy Osiyo mamlakatlari O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining eng istiqbolli strategik yo‘nalishlaridan biridir. Mintaqaning yirik iste’mol bozori, yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari va investitsion salohiyati O‘zbekiston uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. 2020–2025-yillarda

O‘zbekistonning Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 1,38 mlrd dollardan 2,95 mlrd dollargacha oshib, qariyb 2,1 baravar o‘sdi. Bu jarayonda Afg‘oniston, Hindiston va Pokiston bilan hamkorlik asosiy o‘rin tutmoqda. Tahlillar eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. “Mozori Sharif – Kobul – Peshovar” temiryo‘li kabi transport loyihalari Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirib, O‘zbekistonning tranzit va logistika markazi sifatidagi ahamiyatini oshiradi. Umuman olganda, Janubiy Osiyo bilan hamkorlikni chuqurlashtirish eksport salohiyatini kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank Group. World Development Indicators. 2024–2025.
2. UNCTAD. World Investment Report 2024.
3. World Bank. South Asia Development Update. 2024.
4. FAO. Food Security Report. 2024.
5. UNESCO Institute for Statistics. 2024.
6. Asian Development Bank. Asian Development Outlook. 2024–2025.
7. UN Comtrade Database. 2024–2025.
8. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. 2024–2025.
9. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. 2024–2025.
10. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati. 2024.
11. Pakistan Bureau of Statistics. 2024.
12. U.S. Census Bureau. 2024.
13. IMF. World Economic Outlook. 2024.
14. ITC Trade Map. 2025.
15. Wickramasinghe A. Food Security Issues in South Asia. 2014.
16. Worldometer. South Asia Population Statistics.